

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**IJTIMOY FANLAR
SOCIAL STUDIES**

KORXONA VA TASHKILOTLARDA SOG‘LOM MEHNAT SHAROITINI YARATISHDA KASABA UYUSHMASI XODIMINING VAZIFALARI

*Matjanbaev Allayar Jangabaevich
Qoraqalpoq davlat universiteti “07-00-01 – Tarix fanlari”
ixtisosligi bo‘yicha mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxona va muassasalarda kasaba uyushmlari xodimlari orqali ma’naviy muhit yaratishda, sog‘lom turmush tarzini barpo etishda, ko‘p yillik milliy an’analar, mehnat faoliyatining tog‘ri tashkil etilishi ortidan erishilgan yutuqlar haqida so‘z bo‘ladi. Shu orqali, to‘g‘ri, odilona va shaffof shkuhda faoliyat ko‘rsatayorgan kasaba uyushmalari xodimlari faoliyatiga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: kasaba uyushmalari, muassasa, tashkilot, xodimlar, rahbarlar, faoliyat, ma’naviy muhit, mehnat faoliyati va h.k.

ОБЯЗАННОСТИ ПРОФСОЮЗНЫХ ДИРЕКТОРОВ ПО СОЗДАНИЮ ЗДОРОВЫХ УСЛОВИЙ ТРУДА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ И ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация: В данной статье пойдет речь о достижениях в создании духовной среды, формировании здорового образа жизни, многолетних национальных традициях и правильной организации трудовой деятельности на предприятиях и учреждениях. Таким образом, будет затронута и деятельность работников профсоюзов, которые действуют корректно, справедливо и прозрачно.

Ключевые слова: профсоюзы, учреждение, организация, работники, руководители, деятельность, моральная среда, трудовая деятельность и др.

TASKS OF TRADE UNION EMPLOYEES IN CREATING HEALTHY WORKING CONDITIONS IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS

Annotation: This article will discuss the achievements made in creating a spiritual environment, building a healthy lifestyle, and following long-standing national traditions and the proper organization of labor activities through trade union workers in enterprises and institutions. It will also touch upon the activities of trade union workers who operate in a fair, just and transparent manner.

Keywords: trade unions, institution, organization, employees, leaders, activities, spiritual environment, work activities, etc.

KIRISH.

Mehnat qonunchiligiga asosan kasaba uyushmalari faoliyatini tashkil etishda 2019-yil 6-dekabrdagi O‘RQ-588-sonli “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga oid faoliyat ko‘rsatish, ma’naviya muhit yaratish, Kasaba uyushmalari xodimlarning ish beruvchilar bilan jamoa shartnomalari va kelishuvlarini tuzish orqali o‘zaro munosabatlardagi barqarorlik va tenglik holatlarini ta’minlovchi muhim vosita sifatida maydonga chiqmoqdalar.

So‘ngi yillarda kasaba uyushmalari xodimlarining vazifasi faqat sanatoriyalarga yo‘llanma olib berish degan tushuncha shakllanmoqda, bu – noto‘g‘ri talqinligini, siz va biz ishlayotgan muassasalarda mehnat faoliyati asosini kasaba uyushmalari xodimlari normal holatda ushlab turibti deb bemalol aytal olamiz.

So‘ngi yillar mobaynida davlat korxonalarida, kasaba uyushmasi xodimlari mavqeini tiklash bo‘yicha, ularga ko‘pgina imkoniyatlar yaratildi, funksional vazifalari kengaytirildi. Masalan:

- aholi bandligini ta’minalash, ishdan ozod etilayotgan xodimlarni himoya qilish masalalarini, shuningdek xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etadi;
- xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilib sudga da’vo arizasi, shuningdek sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qiladi; xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- davlat bandlik dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, bandlikni ta’minalash, shu jumladan yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish va mavjudlarini saqlab qolish, tashkilotlarning faoliyatini yaxshilash, xodimlarning ommaviy ravishda ishdan ozod etilishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etadi;
- davlat organlaridan, ularning mansabdor shaxslaridan, ish beruvchilardan xodimlarning ijtimoiyiqtisodiy huquq va manfaatlari masalalari yuzasidan bepul axborot oladi;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini tekshirishda ishtirok etadi;
- xodimlarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘ilgan hollarda ishlarni to‘xtatib turish to‘g‘risida, shuningdek mehnatni muhofaza qilish talablarining buzilishlarini bartaraf etish haqida ish beruvchiga takliflar kiritadi;
- mehnatni muhofaza qilishning holatini o‘rganadi, ish beruvchilarning jamoa shartnomalari va kelishuvlarida nazarda tutilgan mehnatni muhofaza qilishga doir majburiyatlarining bajarilishini nazorat qiladi;
- davlat organlariga, ularning mansabdor shaxslariga, ish beruvchilarga, ularning birlashmalariga (ittifoqlariga, uyushmalariga) arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qiladi, ularga so‘rovlar yuboradi.

ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODOLOGIYA

Tadqiqot yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari lex.uz manbasi orqali foydalanildi, UzArxiz Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limidan olingan ma’lumotlar bilan boyitildi, shuningdek mavzuga oid maqolalar kuzatildi.

Tadqiqot metodologiyasi bitiruvchi kurs talabalarining kelgusida davlat muassasalari va tashkilotlarida ishlashida kasaba uyushmasi vakillarining funksional vazifalari haqida kengiroq tushuncha hosil qilishdan iborat.

MUHOKAMA

Korxona va muassasalarda kasaba uyushmalari xodimlari ishchilarning huquqlarini himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy himoyani ta’minalash bilan shug‘ullanadi. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Mehnat huquqlarini himoya qilish – Xodimlarning qonuniy huquqlari buzilmasligi uchun nazorat olib borish.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash – Ish joylarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini ta’minalash, ish haqi va ish vaqtini bo‘yicha muhokamalar olib borish.

Ijtimoiy himoya va moddiy yordam – Ishchilar uchun qo‘srimcha moddiy yordam ko‘rsatish, dam olish va tibbiy xizmatlarni tashkil etish.

Kelishmovchiliklarni hal qilish – Ish beruvchi va xodimlar o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishga yordam berish.

Madaniy va sport tadbirlarini tashkil qilish – Ishchilar uchun madaniy dam olish va jismoniy tarbiya tadbirlarini o‘tkazish.

Kasaba uyushmalari mehnatkashlarning manfaatlarini himoya qilish va ularning turmush darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xullasi kasaba uyushmasi xodimi tarozini teng tortuvchi “savdogar” bo‘lishi lozim, negaki, savdogar o‘z mahsulotini sotishda uning jinsi, millati, elatiga qarab o‘tirmaydi, unga xaridor bo‘lsa bo‘ldi. Kasaba uyushmasi xodimi ham aynan savdogardek yo‘l tutishi, tarozini teng ushplashi lozim.

Kasaba uyushmalari tarixini bilmay turib, ularning ahamiyati to‘g‘risida fikr bildirish noo‘rin hisoblanadi. Qoraqalpog‘istondagi kasaba uyushmalari faoliyati XX asrning birinchi choragida, yani, 1917-1920 yillarda paydo bo‘lgan. Dastlab Amudaryo bo‘limi kasaba uyushmalari o‘z a’zolarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bilan shug‘ullangan. Lekin, 1917-1919 yillar mobaynida Kasaba uyushmalari byurosi faoliyati sust bo‘ldi. Faqat 1919 yilning boshiga kelib ularning ishlarida jonlanish kuzatildi.

“1919-yil 22-aprelda sobiq amaldorlar, shifokorlar, o‘qituvchilar, sanoat xodimlari va ishchilar To‘rtko‘l shahrida yig‘ilib, 350 ga yaqin kishini birlashtirgan “Sovet, ijtimoiy, savdo-sanoat xodimlari uyushmasi”ni tashkil qildi. Barcha kasaba uyushmalarini birlashtirgan Amudaryo bo‘limi Kasaba uyushmalar Kengashi saylandi. Har bir uyushma ishini boshqarma

boshqardi va har bir sho‘ba boshqaruvida rayosat turdi. Kasaba uyushma tashkiloti kengashining raisligiga bank xodimi I.I.Brikman tasdiqlandi⁸¹.

Tarixga nazar solinsa, 1919-yil 26-aprelda kasaba uyushma organi ijtimoiy tashkilot sifatida yuridik jihatdan tashkil qilingani rasmiylashtirildi, ana shundan so‘ng biz tilga olayotgan Kasaba uyushmalari Kengashi muntazam ravishda tuzilib, ular bilan aloqalarini o‘rnatish boshlandi.

bugungi kunda tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga zid mehnat faoliyati buzilishlari, ichki tartib-intizom amallariga bo‘ysinmaslik holatlari bo‘yicha rahbar tomonidan berilgan hayfsanlar, ushbu muassasaning kasaba uyushmasi xodimining rahbarga bergen bildirgi xatiga asosan, xizmatkor olgan hayfsanlarni bekor qilishlari mumkin, buning uchun xodim, tashkilot yoki karxonada har tomonlama o‘zini ko‘rsatishi, mehnat samaradorligini oshirishi kerak bo‘ladi.

XULOSA

Tadqiqot yakunida talabalarda kasaba uyushmalari faoliyatini chuqurroq tahlil qilish va muassasa hamda tashkilotlarda sog‘lom mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida kasaba uyushmasi xodimlarining funksional vazifalari imkoniyatlarini kengaytirish, ma’naviy muhit yaratish zarur deb bilaman.

Birinchidan, har bir muassasada kasaba uyushmasi bo‘limini tashkil etish;

Ikkinchidan, kasaba uyushmalari xodimlari mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlashi uchun ularga zarur shart-sharoit va imoniyatlar yaratib berish;

Uchunichidan, kasaba uyushmasi xodimi to‘g‘ridan-to‘g‘ri director maslahatchisi vazifasini bajaruvchi qilish;

To‘rtinchidan, zarur hollarda muassasa xodimlarining mehnat faoliyatini to‘g‘ri baholashi va ularni rag‘batlantirish huquqlarini berish va h.k.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari lex.uz manbasi
2. UzArxiz Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limidan olingan ma’lumotlar
3. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonuni. //O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 5-son, 115-modda / <https://lex.uz/docs/11360>
4. O‘zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari to‘g‘risida»gi Qonunni. 2019 yil 6 dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 1-2-son, 2- modda; 2008 y., 51-son, 500-modda.

⁸¹ https://aza.uz/oz/posts/qoraqalpogistonda-kasaba-uyushmalar-kengashi-qanday-paydo-bolgan_243862

6. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 1997. –№2. –36-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991. –№4, –76-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 1999. –№5. –110-modda.